Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320453

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

**7. Tahir, A.** (2020). Xodimlar motivatsiyasi va rag'batlantirish: nazariy yondashuvlar va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyoti.

# YUQORI IQTISODIY O'SISH SURATLARINI TA'MINLASHDA SOLIQ SALOHIYATINING AHAMIYATI

**Sharipov Narzullo G'ulomovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasining katta o'qituvchisi
E-mail: gavhar9369@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda barqaror iqtisodiy rivojlanish va yuqori iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minlashda hududlar soliqlarning o'rni, soliq turlari, soliq turlari bo'yicha davlat budjetiga tushgan tushumlar miqdori va hududlar soliq salohiyatining oshirish yo'llari yoritib berilgan. Bunda byudjetga soliqlarning kelib tushushi va undagi muammolar, soliqlar yig'imida chet el tajribasidan namunalar, soliqlarni yig'ishda ularni turlarga ajratish, soliqlarning budjetdagi miqdorlari va ularning yillar ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgarishiga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Hududlar soliq salohiyatini baholash va soliqlarni undirish, soliq turlarini o'zgartirish orqali ularning byudjet daromadlariga ta'sirini va mamlakatda qo'llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Soliq, byudjet, soliq tushumi, byudjet daromadi, soliq salohiyati, hududlar, soliq yig'imlari, bevosita soliqlar, soliq turlari, soliq stavkasi.

Butun dunyo iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishiga mos ravishda samarali soliq tizimini shakllantirish, soliqlarni yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini uzgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida soliqqa tortish shakllari va uslubiyotidagi katta farqning mavjudligi, ular byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilishining ham turlicha ekanligini namoyon etmoqda. Shunday bo'lsada, soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manbasi bo'lib qolmoqda. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda davlat byudjeti daromadlarining eng muhim manbai hisoblanadi. Xalqaro soliq va tarakkiyot markazining so'nggi hisob-kitoblariga ko'ra, jami soliq tushumlari dunyo davlatlarining qariyb yarmida davlat byudjeti daromadlarining 80 foizdan ko'prog'ini va har bir mamlakatda deyarli 50 foizdan ko'pini tashkil qiladi.

Rivojlangan davlatlar byudjet daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlar yukori ulushga ega bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda bilvosita soliqlar ustunlik qilmoqda. Iqtisodchilarning bevosita soliqlarga doir qarashlarida, ularning ayrimlari Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bevosita soliqlarning ustunligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanganligini ko'rsatuvchi indikator sifatida qarasalar, ayrimlari bevosita soliqlarni kamaytirilishi soliq to'lovchilar daromadlarini oshishiga xizmat qilishini, bevosita soliqlarni oshirilishi YaIMni kamayishiga olib kelishini ta'kidlaydilar. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib bevosita yoki bilvosita soliqlarga ustuvorlik berish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda bilvosita soliqlarga ustuvor ahamiyat ega. Davlat byudjeti daromadiga soliq turlari orasida u eng kata qismini tashkilq qiladi, yani oxirgi 3 yilda 40%dan yuqori qismini tashkil qilgan (1-jadval).

**1-jadval**



Published: 23.12.2024
**Cite this article:** Sharipov Narzullo G'ulomovich (2024). Yuqori iqtisodiy o'sish suratlarini ta'minlashda soliq salohiyatining ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320453
*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

**Soliq turlari bo‘yicha davlat budjetiga tushgan tushumlar miqdori (mlrd.so‘m)[7]***

| | Soliq turlari | 2021-yil 31-dekabr holatiga tushumi | 2022-yil 31-dekabr holatiga tushumi | 2024-yil 1-yanvar holatiga tushumi |
|---|---|---|---|---|
| | **Budjetga tushumlar, jami** | **127 970** | **148 388** | **165 918** |
| | Bevosita soliqlar | 57 281 | 61 934 | 72 705 |
| | Bilvosita soliqlar | 38 351 | 45 889 | 49 116 |
| | Resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘i | 23 036 | 23 913 | 28 079 |
| | Davlat boji va jarimalar | 3 333 | 4 236 | 4 856 |
| | Boshqa tushumlar va yig‘imlar | 5 969 | 12 416 | 11 161 |

Yuqoridagi jadvalda berilgan ma’lumotlar asosida shuni ko‘rishimiz mumkinki, bevosita soliqlardan tushgan tushum eng ko‘p miqdorni tashkil qilgan. Jadvaldagi ma’lumotlar asosida bevosita soliqlarning ulushini foiz(%) miqdorida ko‘radigan bo‘lsak, 2022-yilda byudjetga soliq bo‘yicha jami tushumlarning 41,7%ini, 2023-yilda esa 43,8%ini tashkil qilgan.

O‘zbekistan Respublikasi Davlat byudjetining daromadlari tarkibi qonun hujjatlarida 4 ta yirik guruhga bo‘lingan. Lekin ko‘pchilik nazariy iqtisodchilar soliqlarni fakatgina bevosita va bilvosita soliqlarga ajratib, resurs to‘lovlari va mol-mulk solig‘ini (Davlat byudjeti daromadlarining 13-16 foizi) bevosita soliqlar tarkibiga kiritish lozim, deb hisoblaydilar.

O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratildi[8]. Natijada, yuridik shaxslar moliyaviy natijalaridan kelib chiqib birgina foyda solig‘ini to‘lashlari belgilandi, ularning foydasidan undiriladigan boshqa soliq turlari bekor qilindi. Foyda solig‘ining tadbirkorlik sub’ektlari moliyaviy faoliyatiga salbiy ta’siri kamaytirilib, byudjet daromadlaridagi ahamiyatini oshirishga, barcha tadbirkorlik sub’ektlari uchun teng sharoitlarda soliq solishga erishildi.

Dunyo bo‘yicha korporativ soliq stavkasi 1980 yilda 40,11 foizni, shu davrda uning YaIMdagi ulushi 46,52 foizni tashkil etgan. Ko‘plab davlatlar korporativ soliqning yuqori stavkasini biznesni investitsiyalarga oid qarorlariga salbiy ta’sirini anglagan holda, uni pasaytirib borgan. Buning natijasida 2023 yilga kelib uning o‘rtacha stavkasi 21,58 foizni, YaIMdagi ulushi 26,62 foizni tashkil etgan[9].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakat soliq salohiyati hududlar soliq salohiyati yig‘indisidan iborat, hududlar soliq salohiyati o‘z navbatida soliq

[7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining www.soliq.uz rasmiy saytining https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar havolasidagi ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

[8] O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekistan Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘grisida”gi PF-5468-son Farmoni

[9] Asen, E. Corporate Tax Rates around the World, 2023. FISCAL FACT. No. 735. Dec. 2023.

to‘lovchilarning soliq va yig‘imlarni to‘lash salohiyati sifatida izohlanib, yuridik va jismoniy shaxslarning maqomidan kelib chiqib ma’muriy-hududiy birliklarni soliqli daromadlar bilan ta’minlash darajasi bilan bog‘liq. Soliq salohiyati makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisobga olishi bilan birga soliq to‘lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham e’tiborga qaratishni nazarda tutadi. Bu o‘z navbatida mamlakatda qo‘llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma’murchiligi natijadorligi ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Hududlar soliq salohiyatini baholash hududlar soliq salohiyatining o‘lchanadigan ko‘rsatkichlari tizimi, uni belgilovchi omillar va miqdoriy xususiyatga ega bo‘lgan omillar hududlarining soliq salohiyatiga ta’sirini baholash usullari orqali taqdim etiladi. Hududlar soliq salohiyatini baholash usullari funksional-uslubiy asosda tasniflanib, nafaqat haqiqiy baholash usuli bilan, balki maqsadlar va prognoz ufqlari bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, baholash usullarining kamchiliklarini bartaraf etishning taklif etilgan vositalarini hisobga olgan holda, qisqa muddatda hududlar soliq salohiyatini tizimsiz baholash uchun ekstrapolyatsiya usullarini tavsiya etish mumkin, uzoq muddatli tizimni prognoz qilish uchun modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘grisida”gi PF-5468-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3802378
2. Asen, E. Corporate Tax Rates around the World, 2023. FISCAL FACT. No. 735. Dec. 2023.
3. Титов А.А. Совершенствование налога на прибыль организаций в Российской Федерации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - Москва, 2006.
4. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. - T.: TMI, 2018. - 30 b.
5. Islamqulov A.X. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari: I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tasdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: BMA, 2012. 21 b.
O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “O‘zbekistan Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘grisida”gi PF-5468-son Farmoni. https://lex.uz/docs/3802378

## QISHLOQ XO‘JALIGIDAGI TAKROR ISHLAB CHIQARISHDA INVESTITSIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Zaripov Azamat Djurayevich**
Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasi o`qituvchisi
**Yangibayeva Sevinch O‘ktam qizi, Umurzakova Shaxzoda Akmaljon qizi, Mamadaliyeva Gulasal O‘tkir qizi, Ravufov Behruz Avazjon o‘g‘li**
Guliston Davlat Universiteti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligi sohasida takror ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etishda investitsiyalarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Takror ishlab chiqarish, iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida, qishloq xo‘jaligi